WORLD CONFERENCE ON STUDENT - CENTERED LEARNING APPROACHES

UDK. 638.165.18.

ASALARIChILIKDA IShLATILADIGAN UYaLAR VA ULARNING TUZILIShI

Sindarova Mashhura Sherali qizi

Mustaqil izlanuvchi

Anotatsiya: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yotoq uyalar bir qavatdan iboratligi, issiq iqlim sharoitiga moslashtirilganligi, boshqa turdagi uyalardan hajmining kattaligi, sodda tuzilganligi, tom osti qurilmasida zahira havo to‘planishi va romlar sonining ko‘pligi sababli O‘zbekiston sharoitida asalari oilalarini yotoq uyalarda parvarishlash maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: uya, yotoq, issiq, tom, havo, asalari, oila, quruq, magazin, bahor, zot, rom, mumparda, ikki, qish.

Аннотация: Результаты исследований свидетельствуют о том, что в условиях Узбекистана целесообразно содержать пчелиные семьи в однокорпусных ульях, что обусловлено их однокорпусной конструкцией, приспособленностью к жаркому климату, увеличенным объемом (по сравнению с ульями других типов), простотой устройства, наличием запаса воздуха под крышей и большим количеством рамок.

Ключевые слова: пчеловодство, улей, гнездо, тепло, крыша, воздух, пчел, семья, клемат, запасы, весна, расплод, рамка, восковые соты, двухкорпусный, зимовка.

Abstract: Research results indicate that, under the conditions of Uzbekistan, it is advisable to keep bee colonies in single-body hives. This is due to their design, suitability for a hot climate, increased volume (compared to other hive types),

simplicity of construction, the presence of an air space beneath the roof, and their capacity to hold a large number of frames.

Keywords: beekeeping, hive, nest, warmth, roof, air, bees, colony, cluster, stores, spring, brood, frame, wax combs, double-body, overwintering.

I.KIRISh

Asalarilar oilalari kuchli va mahsuldorligi yuqori bo‘lishi uchun uyalar sifatli, quruq va issiq bo‘lishi zarur [1].

Asalarichilikda iqlim sharoiti, asalarilarning zoti, kelib chiqishi va yashash sharoitiga qarab bir qancha turdagi uyalar ishlatiladi. Asalarichilikda eng ko‘p tarqalgan uyalar yotoq, ikki qavatli va ko‘p qavatli uyalar bo‘lib hisoblanadi [2].

II.TADQIQOT NATIJALARI

Yotoq uyalar: yotoq uyalarga 20 tadan 36 tagacha 435x300 mm o‘lchamdagi mum katak inchali romlarni joylashtirish mumkin. Magazin qurilmasiga 435x145 mm o‘lchamdagi romdan uyaning hajmiga qarab 18 tadan 34 tagacha joylashtirish mumkin.

Uyaning oldingi va orqa tarafidagi yog‘och devorning qalinligi 40 mm, ikki yon tarafi 30 mm o‘lchamda bo‘ladi. Uyaning pastki qismi yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, to‘liq yopilgan holatda bo‘ladi. Uyaning taglik qismidan pastki uchish teshigi 12 mm balandlikda qo‘yiladi. Yuqorigi uchish teshigi 20-30 mm balandlikda uyaning joylashish holatiga qarab qo‘yiladi. Tom qismining ustki tomoni tunika bilan qoplangan bo‘lib, ikki yon tomonidan havo kirish teshikchasi qo‘yiladi, havo kirish teshikchasi bo‘ylab uyaning tom qismini ichki tomonidan 3 mm li setka qoplanadi [3].

Yotoq uyalarda asalari oilalarini parvarishlashni ko‘plab qulaylik taraflari mavjud.

Yotoq uyalarda oilalarning ichki hajmini kengaytirish, oilaning o‘sish va rivojlanishiga qarab romlarni o‘ng va chap tarafga surish orqali bajarilsa, ikki va ko‘p qavatli uyalarda qavatlardan foydalaniladi. Ikki va ko‘p qavatli uyalarda oilani kengaytirishda hatoliklarga yo‘l qo‘yish mumkin va ko‘p mehnatni talab qiladi.

Yotoq uyalarda oilani kengaytirish kechikkan vaqtda asalarilar yordamchi to‘siqdan o‘tib o‘zlari mum kataklar yasab o‘sish va rivojlanish imkoniyati mavjud.

Yotoq uyalarda qish mavsumida zahira ona asalarini saqlash uchun to‘liq to‘siq qo‘yib 3-4 romli kichik oilachalar hosil qilish mumkin.

1.rasm. Yotoq uyaning tashqi ko‘rinishi

Yotoq uyalarda to‘liq kuchga ega bo‘lgan asalari oilalari boqilganda, oila asalarilari kuchga chiqishga tayyorgarlik ko‘rmasligi uchun oilaning ichki hajmini bir marotaba kengaytirish, ya’ni bahor faslining oxirlarida yoki yoz faslining boshlarida oilaning yaxshi rivojlanishini ta’minlash maqsadida bo‘sh mum katak romlar va sun’iy mum parda yopishtirilgan romlar uyaning teshikchalari qarshisiga joylashtiriladi.

Yotoq uyalarda asalari oilalari boqilganda kuchga chiqmaslik uchun asalari oilalarini teng ikkiga bo‘lish yaxshi natija beradi. Bunda to‘plangan ko‘p sonli ishchi arilar bitta ona arini tuxuminigina emas, oilani bo‘lish natijasida tashkil qilingan ikkinchi oilaning ona arisi qo‘ygan tuxumlarini ham tarbiyalaydilar.

Yotoq uyalarda asalarilar ko‘p sonli bo‘lganda hamda asal to‘plashda uyaning ichki hajmi torlik qilganda uning ustiga 435x145 mm o‘lchamdagi romli magazin qurilmasini o‘rnatish mumkin.

Ona arining tuxum qo‘yishi va oilaning rivojlanishi yotoq uyalarda cheklanmagan. U yerda yaxshi sharoit yaratilgan bo‘lib, ko‘p sonli lichinkalar yetishtirish mumkin.

2. rasm. Yotoq uyalarda ishlatiladigan romlarning o‘lchamlari

Ikki qavatli uyalar: ikkita qavatdan iborat bo‘lib, har bir qavatiga 12 tadan 435x300 mm o‘lchamdagi mumkatak inchali romlarni joylashtirish mumkin. Har bir asosiy qavatdan keyin magazin qurilmasi bo‘lib, 435x145 mm o‘lchamdagi romdan 10 ta qo‘yiladi. Asosiy qavat va magazin qurilmasining oldingi va orqa tarafidagi yog‘och

devorining qalinligi 40 mm, ikki yon tarafi 30 mm bo‘ladi. Pastki uchish teshigi uyaning taglik qismidan 15 mm, yuqorigi uchish teshigi doira shaklida bo‘lib 25 mm o‘lchamda bo‘ladi [4].

Asalari uyalari va ularga ishlatiladigan romlarni solishtiradigan bo‘lsak yotoq uyalarning ko‘rsatkichlari yaxshi natijalarga ega ekanligini kuzatamiz. (jadval 1).

jadval №1

Asalarichilikda ishlatiladigan uyalar va romlarning asosiy o‘lchamlari, mm.

№	Uyalarning turlari	Ichki eni	Ichki uzunligi	Asosiy korpusning balandligi	Taglik qismining qalinligi	Yog‘och devorining qalinligi	Ishlatiladigan romlarning o‘lchamlari	ketadigan romlar soni
1	Ko‘p qavatli uyalar	450	375	250	35	35	435x230	10
2	Ikki qavatli uyalar	450	450	320	35	40	435x300	12
3	Yotoq uyalar	450	810	330-400	35	40 (oldingi va orqa) 30 (ikki yonbosh tarafi)	435x300	20



3.rasm. Ikki qavatli uyalarning tuzilishi.

Bunday uyada ari boqishning ahamiyati shundan iboratki, uyaning birinchi qavati arilar bilan to‘lgandan keyin uning ustiga arilar ko‘chga chiqish holatiga kelmasdan oldinroq ikkinchi uya qavati qo‘yiladi. Oilaning ichki harorati birdaniga pasayib ketmasligi uchun ikkinchi uya qavatiga 5-6 ta mumkatak inchali romlar qo‘yib, uyaning qolgan bo‘sh qismi yostiqcha yordamida to‘sib qo‘yiladi va ari oilasining rivojlanishiga qarab sekin-asta mumkatak inchali romlar qo‘yib kengaytirib boriladi.

Ko‘p qavatli uyalar: To‘rtta qavatdan iborat bo‘lib, har bir qavatga 435x230 mm o‘lchamdagi 10 ta mumkatak inchali romlarni joylashtirish mumkin. Ko‘p qavatli uyaning to‘rtala tomonidagi yog‘och devorning qalinligi 35 mm bo‘ladi. Uyaning tashqi ikki yon tomonida maxsus chuqurcha bo‘lib, ari oilalarini ko‘chirishda foydalaniladi [4].



4.rasm. Ko‘p qavatli uyalarning tuzilishi.

Arixonalarda ko‘p qavatli uyalarda ari boqilganda asalarichi ari oilalarini tekshirish, oila hajmini kengaytirish, mumparda tortish, asal olish, qishga ozik jamg‘arish kabi mavsum davomida qilinadigan ishlar uya qavatlarini almashtirish orqali bajariladi.

III.Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yotoq uyalar bir qavatdan iboratligi, issiq iqlim sharoitiga moslashtirilganligi, boshqa turdagi uyalardan hajmining kattaligi, sodda tuzilganligi, tom osti qurilmasida zahira havo to‘planishi va romlar sonining ko‘pligi sababli O‘zbekiston sharoitida asalari oilalarini yotoq uyalarda parvarishlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Igoshin O.Yu. “Sovershenstvovanie texnologii soderjaniya i razvedeniya pchel v usloviyax ulyanovskoy oblasi. Avtoreferat dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata selskoxozyaystvennых nauk. – Ulyanovsk, 2014.

2. Kaxramanov B.A., Safarova F.E., Isamuxamedov S.Sh., Donaev X.A., Ergashev X.B. Asalarichilik asoslari. - Toshkent, 2021. – B. 78-97.

3. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh, Kuldasheva F.H, Donyrov S.T, Rakhimjanova N.Z. Breeding indicators of Carniolan (*Apis mellifera carnica Pollm*) and Carpathy (*Apis mellifera carpatica*) honey bees // E3S Web of Conferences 244, 02008 (2021) TPACEE-2021. https://www.researchgate.net/publication/350180085_

4. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh, Safarova F.E., Donaev Kh.A., Mamadov F.Q. Morphological features of the Carniolan (Apis mellifera carnica Pollm) and Carpathian (Apis mellifera carpatica) breeds of honey bees // E3S Web of Conferences 284, 03018 (2021) TPACEE-2021. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403018 - R. 1-7.

5. Kakhramanov B.A., Isamukhamedov S.Sh., Orifjonov.J.R., Raimdjanova N.Z. **Continuous and terms of work performed in artifikal mother bees //** Prospects for the introduction of innovative tehnologies in the development of agriculture. 2021. 05.07. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки..**

6. Kashkovskiy V.G. Razrabotka optimalnoy texnologii soderjaniya pchel i yee vliyanie na razvetie pchelovodstva sibiri. Avtoreferat dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktor selskoxozyaystvennых nauk. – Novosibirsk, 2006.

7. To‘raev O. Salyamov S. Asalarichilikda bahorda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar. “Zooveterinarriya” j. 2010, №4, 45-bet.